

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## **FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ**

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'lrimda tayyorlandi.

### **Tahrir hay'ati**

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### **Tahririyat kengashi**

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

<b>X.Mamajonov</b>	
Amir Temur hamda To'xtamishxon o'rtaсидаги дипломатик муносабатларнинг манбашунослигига доир айrim fikr-mulohazalar .....	113
ADABIYOTSHUNOSLIK	
<b>X.Maxsudova, Sh.Shahobiddinova</b>	
Ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari .....	118
<b>A.Abduraxmonov</b>	
Zamonaviy o'zbek nasrida rangning g'oyaviy yo'nalishni tashkillashdagi ahamiyati .....	122
<b>B.To'rayeva</b>	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari .....	127
<b>N.Karimova</b>	
Abdulla Qodiriy asarlarida folklor xronotopi .....	134
<b>P.Ro'ziboyeva, B.Karimov</b>	
Abdulhamid Cho'lon hikoyalarda ayollar obrazi talqini, ayollar erki va ta'limi masalasi .....	138
<b>N.Avazov</b>	
"Padarkush"ning ta'siri va jadid dramalarining yaratilishi.....	143
<b>Sh.Axmedova</b>	
Omon matjon she'riyatining badiiy jihatlari.....	151
<b>N.Soatova</b>	
Shuhratning masal va hajviy she'r yaratish mahorati .....	155
<b>Sh.Turg'unov</b>	
Harbadoshlarning o'langa nisbatan ta'rifi xususida .....	162
TILSHUNOSLIK	
<b>Sh.Iskandarova, F.Musayeva</b>	
Muhammad Yusuf she'rlarida zamon tushunchasining o'rganilishiga doir.....	168
<b>D.Ganiyeva</b>	
Turli tizimdagи tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunktionalligi.....	171
<b>Sh.Amonturdiyeva</b>	
Diniy matnlarning fonetik imkoniyatlari.....	176
<b>N.Xoshimova</b>	
Bilvosita gaplarning turli madaniyatlarda ifodasi .....	184
<b>M.Hojiyeva</b>	
Terminologik kompetentlik – bo'lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashning asosi sifatida .....	187
<b>V.Giyosova</b>	
Bolalarga oid murojaat birliklariga doir mulohazalar .....	190
<b>S.Ahmadaliyeva</b>	
Pragmatonimlarning farqlovchi elementlari va funksiyalari haqida.....	193
<b>H.Saipova</b>	
Nutqning sintaktik-kompozitsion tahliliy usullari .....	197
MATEMATIKA	
<b>T.Ergashev, D.Urinboyeva</b>	
Ikkinchи tartibli ikki o'zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar nazariyasi haqida.....	201
<b>B.Kadirkulov, M.Jalilov</b>	
Involutsiya qatnashgan kasr tartibli parabolik tipdagи tenglama uchun qo'yilgan teskari masala .....	209
<b>N.Murolimova</b>	
Vazn funksiyasiga ega bo'lgan riman-liuvil va atangana-baleanu kasr tartibli operatorlar qatnashgan to'lgin tenglamasi uchun chegaraviy masala .....	214
<u>FIZIKA - TEXNIKA</u>	
<b>X.Raxmonjonov, Sh.Shuxratov</b>	
Zamonaviy elektr jihozlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish .....	223
<b>M.Abdullahayeva, Sh.Shuxratov</b>	
Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikni kreativ yondashuv asosida o'rganishnig pedagogik-psixologik imkoniyatlari.....	228

**TURLI TIZIMDAGI TILLARDA NISBAT SHAKLLARINING SINKRETIKLIGI VA  
POLIFUNKSIONALLIGI**

**СИНКРЕТИЧНОСТЬ И ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНОСТЬ ФОРМОЙ ЗАЛОГОВ В  
РАЗНОСИСТЕМНЫХ ЯЗЫКАХ**

**SYNCRETISM AND POLYFUNCTIONALITY OF FORMS OF THE VOICES IN LANGUAGES IN  
DIFFERENT SYSTEMS**

**Ganiyeva Dildoraxon Azizovna<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Ganiyeva Dildoraxon Azizovna**

— Andijon davlat universiteti doktoranti,  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Annotatsiya:**

*Mazkur maqolada fe'l so'z turkumiga xos bahstalab grammatic kategoriyalardan biri bo'lgan nisbat kategoriyasining agglutinativ va flektiv tillardagi talqini, turlari va funksional-uslubiy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Nisbat shakllarining sinkretik tabiatini hamda polifunksional jihatlari o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida tahlilga tortiladi.*

**Аннотация:**

*В данной статье рассматриваются толкование, виды и функционально-стилистические особенности категории залог в агглютинативных и флексивных языках, которая является одной из спорных грамматических категорий глагольной группы. На материалах узбекского и английского языков анализируются синкремический характер и полифункциональные аспекты форм залогов.*

**Abstract:**

*In this article interpretations, types, functional and stylistic properties of the category of voice, which is one the most disputable grammatical categories are studied in agglutinative and inflective languages. The syncretic characteristics and polyfunctional aspects of voice forms are analysed in the material of Uzbek and English languages.*

**Kalit so'zlar:** nisbat kategoriyasi, ikki nisbatli nazariya, uch nisbatli nazariya, aniq nisbat, majhul nisbat, o'zlik nisbat, orttirma nisbat, birgalik nisbat, o'rta majhul nisbat, leksik majhul nisbat, sinkretiklik, polifunktionallik.

**Ключевые слова:** категория залога, двухзалоговая теория, трехзалоговая теория, действительный залог, страдательный залог, возвратный залог, каузативный залог, взаимно-совместный залог, среднострадательный залог, лексико-страдательный залог, синкремичность, полифункциональность.

**Key words:** the category of voice, the theory of two voices, the theory of three voices, active voice, passive voice, causative voice, reciprocal voice, cooperative voice, medio-passive voice, lexical passive voice, syncretism, polyfunctionality.

**KIRISH**

Fe'lning nisbat kategoriyasi jahon tilshunosligida bir qancha tadqiqotchilarning izlanish ob'yekti bo'lgan, ko'plab babs-munozaralarga sabab bo'lgan muammolardan biridir. Dunyo lingvistlari o'rtasida mazkur grammatic kategoriyaning turlichalar qilingan nuqtai nazar mavjud bo'lib, shuningdek, uning turlari haqidagi fikrlar ham turlichadir. Bunday xilma-xil munosabat nisbat shakllarining sinkretik tabiatini bilan bog'liqdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ingliz tilshunosligida bu mavzuning o'rganilishi haqida Y.Svartik shunday yozadi: "Nisbat grammatic kategoriyasining o'rganilishi oxirgi yillarda ommaning katta e'tiboridan "zavqlanayotgan" yo'naliishlardandir. Haqiqatan ham, bu davrda ingliz tilshunosligi tarixida olimlarning ko'roq diqqatini tortdi" [1:1]. Rus lingvisti A.Karpov nisbat kategoriyasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Tilshunoslikda fe'lning nisbat kategoriyasi bo'yicha umumiyligini qabul qilingan nuqtai nazar mavjud emas. Nisbat atamasi ostida harakatning yo sub'yektga, yo ob'yektga, yoki sub'yekt va ob'yektga munosabatini tushuniladi" [2:54]. O'zbek tilshunosi Sh.Rahmatullayev ham nisbat haqidagi ta'rifida harakatning munosabatiga urg'u beradi: "Harakatning bajaruvchisi bilan harakat o'tadigan predmet-vositasiz to'ldiruvchi orasidagi o'zaro munosabatda bajaruvchining holatini belgilaydigan morfemaga nisbat yasovchisi deyiladi, bunday morfemalar nisbat shakllari paradigmaсинi tashkil etadi" [3:175].

Dunyo tillarida nisbatning turlari to'g'risida yuqoridagi rus olimining quyidagi fikri e'tiborli: "Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ikkita nisbat nazariyasi o'z aksini topgan: ikki nisbatli (aniq va majhul nisbatlar) va uch nisbatli (aniq, majhul, o'zlik nisbatlar)" [2:54]. Bu fikrini u rus tilida uchta nisbatning mavjudligi bilan izohlaydi. Vikipediya ensiklopediyasidagi nisbat haqidagi maqolada ham nisbatning uchta turi borligiga urg'u berilgani holda, ba'zi tillarda grammatick nisbatlar ko'pligi, masalan, klassik mo'g'ul tilida beshta: aniq, majhul, orttirma, o'zlik va birgalik nisbatlari mavjudligi aytildi [4].

Agglyutinativ tillardan biri bo'lgan o'zbek tilidagi nisbat kategoriyasini akademik A.Hojiyev "daraja kategoriyasi" deb nomlaydi va shunday yozadi: "Daraja kategoriyasi harakatning sub'ekt va ob'ektga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Bu munosabat maxsus fe'l formalari orqali ifodalananadi" [5:91]. U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev tomonidan yozilgan darslikda ham [6:331], R.Sayfullayeva boshchiligidagi mualliflar guruhi tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmada [7:93] ham beshta nisbat borligi ta'kidlanadi. Sh.Rahmatullayev esa o'zining 2010-yildagi darsligida o'zbek tilida majhul nisbat va unga zid qo'yib belgilanadigan aniq nisbat shakllaridan iboratligi to'g'risidagi qarashni ilgari suradi [3:175].

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Fe'lning aniq nisbat shakli harakatning grammatick ega bilan ifodalangan sub'yekt tomonidan bajarilishini bildiradi. Agglyutinativ hozirgi o'zbek tilida ham, flektiv zamonaviy ingliz tilida ham fe'lning mazkur nisbat shakli qo'shimcha yoki so'z ko'rinishidagi o'ziga xos ko'rsatkichga ega emas: Ha, *shunga qolganda, aqlim yetmabdi-da. Xo'sh, qayerdan boshlamoqchisiz?* (N.Ismoilov, Omonat g'or siri) – *They have produced over 20 models in the past two years.*

Yuqorida aytib o'tilganidek, ma'lum harakat gapning egasi bildirgan shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini ifodalash mazkur nisbat shaklining asosiy funksiyasi hisoblanadi: *Umida Davlatovna telefon go'shangini o'rniga qo'yarkan, xayoli battar qochdi* (Y.Xudoyqulov, Falakning gardishi). – *I went to the park.*

Shuningdek, ba'zi hollarda aniq nisbatdagi fe'l majhul nisbat shakli vazifasini ham bajarishi mumkin: *Kelishilgan narx evaziga to'liq umra qildirib, qaytib ana shu avtoturargohga olib kelishga kelishildi* (Internet tarmog'idan).

Yuqoridagi gapda *qildirib* fe'li shakl jihatidan aniq nisbatdagi fe'l bo'lsa-da, ma'no jihatidan majhul nisbatni ifodalash uchun xizmat qilyapti. Bunday holat ingliz tilida ham uchraydi va bu haqda tilshunoslar shunday yozadilar: "Ba'zi fe'llar aniq nisbat shaklida bo'lsa ham, majhul nisbat sifatida talqin qilinadi. Bu hodisa o'rta majhul (medio-passive) deb ataladi: *This kind of cloth washes easily – Bunday kiyimlar oson yuviladi. – The play reads well, but it doesn't act – Pyesa yaxshi o'qiladi, lekin ijro qilinmaydi*" [8:168].

F.Polmer esa aniq nisbatning bunday qo'llanishining bir turini leksik majhul nisbat (lexical passive) deb ataydi va ularni shunday ta'riflaydi: "Aniq nisbatdagi gaplarning ba'zi turlari borki, ular semantik va sintaktik jihatdan majhul nisbatga o'xshaydi". Bunda u *He rang the bell – U qo'ng'iroqni chaldi, The bell rang – Qo'ng'iroq chalindi* (bunda o'zbek tilida ikkinchi gap mahhul nisbat shaklida, lekin ingliz tilida ikkala gapda ham aniq nisbatdagi fe'l ishlataliyapti); *The wind broke the window – Shamol derazani sindirdi, The window broke – Deraza sindi* tipidagi gaplarni tahlil qiladi va ularda kelishiklar qo'llanishi bilan so'zlar o'rtasidagi munosabatlar sababli paydo bo'ladigan nisbat shakllari sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, tilshunos yuqorida R.Deklerk "o'rta majhul nisbatdagi fe'l" deb atagan hodisani ravishli majhul nisbat deb nomlaydi va quyidagilarni misol sifatida beradi: *These shirts wash well – Bu ko'yaklar yaxshi yuviladi, The meat cuts easily – Go'sht oson to'g'raladi* [9:90].

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinish turibdiki, o'zbek va ingliz tillarida aniq nisbat shakllari polifunktional xususiyatga ega bo'lib, nutq jarayonida o'zlarining birlamchi funksiyalaridan tashqari, ikkilamchi funksiyalarini ham namoyon qiladi va faqat aniq nisbatni emas, boshqa, masalan, ingliz va o'zbek tillarida majhul, o'zbek tilida birgalik nisbatlarni ifodalash uchun ham qo'llanadi.

Agglyutinativ tillar tizimiga kiruvchi hozirgi o'zbek tilida majhul nisbat shakli: "markerli: -affaksi bilan yasaladi: *ayt → ayt-, yasa → yasal-* kabi. Ba'zan -*I affaksi -n* shaklida qo'shiladi: *ol → olin-, sayla → saylan-* kabi. Ko'rindiki, majhul nisbat yasovchi affiks -*I*, -*n* allomorfemalari shaklida namoyon bo'ladi; bulardan -*I* asosiy, -*n* esa ikkilamchi allomorfema [3:175]" .

## TILSHUNOSLIK

Majhul nisbat shaklining birlamchi funksiyasi ish-harakatning grammatik ega tomonidan emas, boshqa sub'yekt tomonidan bajarilganini ifodalashdir:

*Inson ham Alloh tomonidan yaratilgan tabiatning bir mevasidir. Dardni berguvchi ham, olguvchi ham O'zidir.* (N.Xashimov, Yovvoyi kuyov).

Ba'zida o'timsiz fe'llar bilan ishlatilgan mazkur nisbat shakli shaxssiz fe'l shaklini yasash uchun xizmat qilishi mumkin: *Tezkorlik bilan harakat qilinmasa, qizlarning hayoti barbod bo'lishi mumkin* (N.Ismoilov, Omonat g'or siri).

Uchinchi shaxs buyruq-istak maylidagi fe'lni hosil qiluvchi -sin qo'shimchasi bilan ishlatilgan majhul nisbat shakli ikkinchi shaxsga qaratilgan buyruqni ifodalash vazifasini bajaradi: *Yuklar tashlansin, faqat qurollar olinib, katta shaharga qarab piyoda yo'l olinsin!*

Shuningdek, yuqorida shakldagi majhul nisbat fe'li boshqa funksiyani ham bajarishi mumkin: *Qani, ichkari uyga kirilsin, oyim* (A.Qodiriy, O'tkan kunlar).

Bunday shakl haqida A.Hojiyev quyidagilarni qayd etadi: "Ko'rib o'tilgan xususiyati ta'sirida mazkur forma buyrugni kuchsiz tarzda ifodalash, kamtarlik, xushmuomala, qochiriq (istehzo) va shu kabi ma'nolarda ham qo'llanadi" [5:100].

Shuningdek, majhul nisbat shakli ba'zi hollarda aniq nisbat ma'nosini ifodalab kelishi ham mumkin: *U Meli polvon, Sotvoldi kabilarga harf o'rgatib ulguolmas, ba'zi birovlari esa o'tilgan harflarni esdan chiqarib qynalardilar.*

Yuqorida shakldagi gapda o'tilgan so'zi bilan ifodalangan harakat grammatik ega tomonidan bajarilgan bo'lsa ham, fe'l aniq nisbat, ya'ni o'tgan shaklida qo'llanmayapti.

Flektiv tillardan bo'lgan ingliz tilida majhul nisbat fe'li *to be yordamchi fe'lining shaxs*, son va zamonga mos shakli hamda o'tgan zamon sifatdoshi, ya'ni asosiy fe'lning 3-shakli (yoki fe'l o'zagiga -ed qo'shimchasini qo'shish) orqali hosil qilinadi. Ba'zi hollarda yordamchi fe'l vazifasida *to get* fe'li ham qo'llanishi mumkin: *The firm has been greatly expanded by the new manager.*

*The police arrest the small dealers regularly, but the big ones never get caught.*

Majhul nisbat shakllarining ikkilamchi funksiyalari ham mavjud bo'lib, ulardan biri haqida ingliz tilshunosi R.Deklerk shunday yozadi: "*be+o'tgan zamon sifatdoshi* shaklidagi hamma fe'l birikmalar ham majhul nisbat shaklli emas. Qachonki fe'l birikma tugallanib bo'lgan, nutq paytigacha holatga aylanib bo'lgan harakatni bildirayotgan bo'lsa, bunday shakllar majhul va aniq nisbat talqinlari o'rtaсидаги ikki ma'noli birlikdir. Keyingi holatda o'tgan zamon sifatdoshi sifatlashgan: *They were married by a missionary in Uganda – Ular Ugandadagi ruhoniy tomonidan nikohlangan.* (majhul nisbat)

*They were married when they came back to Europe – Ular Yevropaga kelganlarida, nikohlangan edilar.* (majhul nisbat emas, holatga ishora)

*They were married last year – Ular o'tgan yili nikohlangan edilar.* (ikki ma'noli) [8:166].

Ba'zida ingliz tilidagi majhul nisbat harakatning bajaruvchisi noaniqligi uchun ishlatiladi:

*I've been insulted!*

*The trees had to be cut down.*

So'zlovchi harakatning bajaruvchisini aytishni istamagan ayrim holatlarda majhul nisbatdagi fe'l qo'llanadi:

*All necessary information will be sent to you.*

*Barcha zarur ma'lumotlar sizga jo'natiladi.*

Yuqorida shakldagi gapda so'zlovchi harakatni bajarishga kim mas'ulligini aytishni xohlamagani uchun majhul nisbatdan foydalanyapti. Shuningdek, quyidagi misolda harakatni kim bajarganini kuchliroq ta'kidlab o'tish uchun ushba bajaruvchini gapning so'ngida *by* predlogi bilan birgalikda berilishi ham mumkin. Bunday holatda majhul nisbat bajaruvchini bo'rttirib ko'rsatish uchun yordam beradi: *The order to arrest the leader of the Opposition was given by the Prime Minister himself.*

Majhul nisbatning yana bir funksiyasi haqida F.Polmer quyidagicha fikr yuritadi: "Yana bir, lekin ancha bahsli bo'lgan funksiya bu – tematizatsiya funksiyasidir, ya'ni ma'lum bir ot birikmani bu birikma orqali ifodalangan ma'noning ahamiyatini ko'rsatib berish uchun ega pozitsiyasiga o'tkaziladi. Bunday usul, ayniqsa, bayon uslubida bitta egani keyingi gapda qayta qo'llamaslik maqsadida (yoki ergash gapli qo'shma gaplarda) qo'llanadi:

*John came in. He was immediately welcomed by the committee.*

*John came in and was immediately welcomed by the committee*" [9:83].

Agglyutinativ o'zbek tilida o'zlik nisbatni yasovchi asosiy formant -(i)n qo'shimchasiidir. Shuningdek, ba'zi fe'llarda -(i)l, -(i)sh qo'shimchalari ham o'zlik nisbatini hosil qilish uchun ishlataladi. Mazkur qo'shimchalarining qo'llanish jihatidan farqli tomoni faqat qaysi fe'l o'zakka qo'shilishiga ko'ra bo'lgani uchun funksional xususiyatlari o'xhash. Shuning uchun tahlilda umumiy o'zlik nisbatdagi fe'l shakli nazarda tutiladi.

Ushbu nisbat shaklining birlamchi funksiyasi sof o'zlik ma'nosini, ya'ni o'zlik nisbatdagi fe'lidan anglashilgan harakat sub'yeckning o'zida bo'lgan tabiiy holatni bildirish bo'lib, bunda mazkur sub'yeck sodir bo'lgan harakatni o'ziga to'la qabul qiluvchi ob'yeck hisoblanadi.

O'zlik nisbatidagi fe'lning yana bir funksiyasi haqida 1992-yildagi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligi mualliflari shunday yozadilar: "Sub'yeckning ruhiy holatidagi o'zgarishlar ifodalanadi. Bunday fe'llar doim o'zlik shaklda qo'llanadi, nisbat affiksini fe'l asosidan ajratib bo'lmaydi: shodlan, quvon, faxlan, seskan, taajjublan kabi" [6:322]. Quyidagi gapda ruhiy holatni ifodalash uchun ishlatalgan o'zlik nisbatdagi fe'lni ko'rish mumkin: *Yaxshioev do'st larning qo'rqaqligidan zavqlandi, yoyilib kuldi* (M.Muhammad Do'st, Lolazor).

-(i)n, -(i)l qo'shimchalarining ba'zi fe'llar o'zagiga qo'shilishi orqali ularda o'zlik nisbat shakli yasalayotganga o'xshaydi, ma'nosida ham "harakatning o'ziga qaytishi"ga ishora bor, lekin bunda bu formantning funksiyasi boshqa hisoblanadi, ya'ni ular "...'biroz', 'ozmi-ko'pmi', 'ma'lum darajada' kabi ozaytirish ma'nosini ifodalovchi affiks" [3:179].

Shuningdek, ba'zida o'zlik nisbatidagi fe'l harakatning bajaruvchisi bo'lgan sub'yeckning o'z joyini o'zgartirishi, makondagi harakatini bildirish vazifasini bajaradi: *Mamajonning qo'llari beixtiyor mushtlandi* (N.Xashimov, Yovvoyi kuyov).

Fe'llarning orttirma nisbat shakllari agglyutinativ til bo'lgan o'zbek tilidagi sinkretizm hodisasini yaqqol ifodalovchi birliklardan deb hisoblash mumkin. Chunki bunday fe'llarda ham harakat bajaruvchisiga, ham ushbu harakatning sodir bo'lishiga sababchi bo'lgan boshqa ishtirokchiga ishora qorishiq tarzda ifodalanadi. Bu nisbat turi yasovchi qo'shimchalarining boshqa nisbat turlaridagiga nisbatan ko'pligi bilan ajralib turadi.

*Nonushtadan keyin Matchonov hammani hovliga to'plab, safga turgazdi* (Z. Quroboy qizi, Mashaqqatlar girdobi) gapida orttirma nisbatdagi fe'lidan anglashilgan harakatga majbur qilish ma'nosini ifodalanyapti.

*Kechagina hamma kiyimlarini o'g'irlatdi* gapida esa orttirma nisbatdagi o'g'irlatdi fe'lida vosita bo'lish, majbur qilish ma'nolari nazarda tutilmaydi, balki mazkur harakat boshqa shaxs tomonidan bajarilganiga ishora qiladi.

Shuningdek, hozirgi o'zbek tilida shaklan va ma'no jihatidan orttirma nisbatdagi fe'lga o'xhash bo'lsa ham, til taraqqiyoti tufayli bitta o'zak deb hisoblanuvchi fe'llar ham mavjud. Bu haqda R.Sayfullayeva boshchiligidagi muaaliflar guruhi tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmada shunday yoziladi: "Orttirma nisbat shaklli fe'l semantikasida ma'noviy siljish ro'y berib, unga xos morfema ajralmaydigan holga kelib qolishi ham mumkin: *[tuzatmoq], [surishtirmoq], [solishtirmoq], [yaratmoq], [uyg'on], [yupan], [erkalatmoq], [(dalil, misol) keltirmoq]* tipidagi fe'l ham shular jumlasidandir" [7:196].

*Agar otangga gapni boshqacha qilib yetkazsang, ogzingni jirib qo'yaman, bilingmi?!* — dedi ayol qahr bilan va *Mamajonning yuziga bir shapaloq tushirdi* (N.Xashimov, Yovvoyi kuyov).

Akademik A.Hojiyev bunga o'xshash yana boshqa holatlarni sanab o'tadi. Bulardan biri ayrim fe'llarning orttirma nisbat shakli yangi ma'no kasb etadi, ikkinchisi esa ba'zi o'timli fe'llar bo'lib, ularga orttirma nisbat hosil qiluvchi qo'shimcha qo'shilganda, harakatning ob'yeck va sub'yecktga bo'lgan munosabatida o'zgarish bo'lmay, u ham yangi ma'no namoyon etish uchun xizmat qiladi [5:98].

*O'g'lingiz Mamajon juda ham zehnli, iqtidorli bola ko'rindi, uni, albatta o'qiting* deganini o'z qulog'i bilan eshitdi (N.Xashimov, Yovvoyi kuyov).

*Ular o'zbekcha va ruscha so'zlarni aralash-qurash ishlatalib ancha tortishdi.*

Yuqoridaagi gapda *ishlatib* fe'l ko'rinishidan orttirma nisbatda qo'llanilayotganga o'xshasada, aslida uning ma'nosи mazkur fe'lning o'zagiga o'xshagan *ishlamoq* fe'lidan boshqacha.

Ko'rinish turibdiki, o'zlik nisbatdagi fe'l funksional jihatdan keng qamrovli bo'lib, nutq jarayonida ushbu funksiyalardan bittasi voqelanadi.

## TILSHUNOSLIK

Turkiy tillar guruhiga kirivchi o'zbek tilida birgalik nisbat shakli fe'l o'zagiga -(i)sh qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi. Mazkur fe'l shakli polifunksional xususiyatga ega. Bir necha shaxs tomonidan bajarilgan harakatni ifodalash birgalik nisbatdagi fe'lning bir vazifasidir: *Shuning uchun Ahmadbeyning yoshi, saxt-sumbati haqida hech qanday ma'lumot bera olishmadi* (Z.Qurolboy qizi, Mashaqqatlar girdobi).

1992-yilda nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligi mualliflari yuqoridagi funksiyalarni birgalik-ko'plik va birgalik-o'zlik ma'nolari sifatida tavsiflashadi [5:324]. Birgalik nisbat shaklidagi fe'l grammatik eganing boshqa shaxsga yordam, ko'mak berishini bildirish vazifasida qo'llanadi: *Usta toming tuprog'ini ko'chirishga tusharkan, O'ktam ketmon bilan ustaga boqishdi.*

Shuningdek, "Ba'zi fe'llarning tarkibida birgalik daraja ko'rsatkichi bo'lsa-da va ulardan birgalik daraja formasiga xos ma'no sezilib tursa-da, lekin ular hozirgi tilda morfologik jihatdan ajralmas holga kelgan bo'ladi, bosh daraja formasi hisoblanadi: *to'qnashdi, boqishdi, qarashdi* ("yordamlashdi" ma'nosida), *aytishdi, tortishdi* ("bahslashdi" ma'nosida) va b." [5:102]: *Odamlarmi? Ularning jismiga nimadir yetishmay qoladi. Shunda qaysidir giyoh, qaysidir dori malham bo'ladi* (N.Xashimov, Yovvoyi kuyov). Yuqoridagi gap tarkibidagi *yetishmay* fe'l shaklan birgalik nisbatda bo'lsa ham, aslida aniq nisbatdagi fe'l hisoblanadi.

## XULOSA

Agglyutinativ va flektiv tillarning barchasiga xos bo'lgan nisbat grammatic kategoriyasi turli tillarda turlicha ko'rinishlarga ega bo'lsa-da, bunday shakllarga xos sinkretik tabiat bu tillardagi o'xshash xususiyatdir. Jumladan, aniq nisbat shakli flektiv ingliz tilida ham, agglyutinativ o'zbek tilida ham aniq nisbat bilan birga, ikkilamchi funksiyasini voqelantirib, majhul nisbatni ham bildirishi mumkin. Yoki majhul nisbat shakli ham yuqoridagi tillarda ma'lum ish-harakatning grammatic ega emas, boshqa shaxs tomonidan bajarilganini va shaxssiz yoki harakatning bajaruvchisi noaniqligini ifodalashi, shuningdek, mazkur tillardagi nisbat shakllarining o'ziga xos boshqa funksional xususiyatlari sababli bu shakllardagi sinkretiklik namoyon bo'ladi.

## ADABIYOTLAR

1. Svartvik J. On voice in the English verb. – Paris: Mouton&Co, 1966.
2. Карпов А.К. Морфология современного русского языка: Учебное пособие.– Нижневартовск, 2019. (Karpov A.K. Morphology of the modern Russian language: Manual. – Nizhnevartovsk, 2019).
3. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Биринчи китоб. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2010. (Rahmatullaev Sh. Modern literary Uzbek language. The 1<sup>st</sup> book. – Tashkent: Mumtoz Suz, 2010).
4. [https://en.wikipedia.org/wiki/Voice\\_\(grammar\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Voice_(grammar))
5. Ҳожиев А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. (Hojiev A. Verb. – Tashkent: Fan, 1973).
6. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. (Tursunov U., Mukhtorov A., Rahmatullaev Sh. Modern Uzbek literary language. – Tashkent: Uzbekistan, 1992).
7. Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009 (Sayfullayeva R. et al. Current Uzbek literary language. Manual. – Tashkent: Fan va texnologiya, 2009).
8. Declerck R. A comprehensive descriptive grammar of English. – Tokyo: Kaitakusha, 1991 (e-version).
9. Palmer F.R. The English verb. – London: Longman, 1988.

(Taqrizchi: S.Mo'minov – filologiya fanlari doktori, professor)